

# **PEDAGOGIKA**

ISSN 2791-2404 (print)  
ISSN 2791-2412 (online)  
*ilmiy-nazariy va metodik jurnal*

**1/2016**

**Кадирова Нилуфар**

О коммуникативно-кумулятивном методе обучения иностранному языку.....82

**Tajbenova Saule**

Та'лим qoraqolpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili bo'yicha shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar talqini.....86

**Sultanova Aydin**

Qoraqalpoq guruhlarida o'zbek tili grammatik vositalarini qiyosiy o'rganish.....91

**Клименко Ирина**

Развитие коммуникативной культуры с использованием произведений художников узбекистана в системе непрерывного образования.....96

**Azimova Feruza**

O'quvchilarning dramatik asarlar tahliliga doir kompetensiyalarini rivojlantirish.....103

**SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI**

**Talipov Nozim**

Inson qiyofasini moybo'yoqda ishlashga o'rgatish usullari.....109

**Sultanov Xaytboy**

Talabalarni kasbly faoliyatga tayyorlashda ko'rgazma va tanlovlarning o'rmi.....113

**TA'LIM TIZIMI YANGILIKLARI**

**Baratov Pattax**

Geoekologiya asoslaridan yangi qo'llanma.....118

**Musurmonova Oynisa**

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining strategik menejmenti talqini.....119

**FAN VA TA'LIM FIDOYILARI**

**Valiyev A'zamjon, Ashirboyev Azim, Meyliyeva Komila**

Kompyuter grafikasi ustasi.....122

Talipov Nozim (TDPU)

## INSON QIYOFASINI MOYBO'YOQDA ISHLASHGA O'RGATISH USULLARI

**Abstract.** Article comprises the basic theoretical and practical recommendations about portrait performance. As work on a portrait demands the special approach from painter in article features of individual methods on this question are given.

**Резюме.** Статья содержит основные теоретические и практические рекомендации по выполнению портрета масляной краской. Так как работа над портретом требует особого подхода от художника, то в статье даются особенности индивидуальных методов по этому вопросу.

**Tayanch tushunchalar:** portret, komponovka, janr, realistik portret, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, kompozitsiya, perspektiv qisqarish, rang, tus, grizayl, etyud.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim-tarbiya tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta'limda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning ustuvorligi kabilar bilan birga uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilgan<sup>1</sup>. Shu jihatdan ham kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'atning o'qitilishini yangicha tashkil etish, uning mazmuni va metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'atning portret janri bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, talabalarga tasviriy san'at orqali badiiy ta'lim berish muhim vazifalardan biridir.

Talabalarining portret janrini tasvirlashi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglash, tushunish va uning faol ishtirokchisiga aylanishi kabl muammolar o'z yechimini topishi zarur. Portret janri ustida ishlash jarayonida talabalar uning oddiy qonuniyatlari(to'g'ri joylashtirish, perspektiv qisqarish, qarash nuqtasi, rang va tus munosabatlari)ni ham nazariy, ham amaliy o'zlashtirib boradi.

Inson qiyofasini ishlash rassomdan ancha ko'p bilim talab qiladi. Bunday talablar o'qish va o'rganishni, ham nazariy, ham amaliy tajribalar to'plashni, ularni amalda qo'llay bilishni taqozo etadi. Inson qiyofasi va gavdasi rangtasvirini ishlashdan avval o'quv natyurmortlarini puxta ishlash o'rganib olingan bo'lishi kerak. Aks holda ijobiy natijalarga erishish mumkin emas. Inson

ni ishlashni bir-biri bilan uzviy bog'liq holdagi bir necha bosqichlarga mumkin. Ular quyidagilar:

qiyofa tasvirini grizayl texnikasida bajarish;

qiyofa tasvirini kunduzgi yorug'lik sharoiti muhitida tasvirlash;

qiyofa tasvirini sun'iy yoritilgan holatda aks ettirish;

qiyofa rangtasvirini ochiq havoda (plenerda) tasvirlash.

Ma'lumki, tasvir ishlashda chizilayotgan narsaning tusi (ton)ni to'g'ri aks etishiga shunga muvofiq rangni berish muhim ahamiyatga ega. Inson qiyofasi tasvirlash mashqlarida ham bu asosiy vazifadir. Buning uchun, avvalo, rang och-to'qligini, shakl xususiyatlarini topib tasvirlashni o'rganib olish qo'yilmani grizayl texnikasida bajarishga to'g'ri keladi, chunki shunday holatda qiyofaning hajmdorligi, shaklini yuzaga chiqarishni o'rganish qulay. Tasvirlash bitta rang tusi bilan tasvir ishlanganda ko'proq buyumning mavjudligi (portret), qiyofaning (portret) shakliga va hajmini ko'rsatishga, shuningdek, qiyofaning soya-yorug' qismlarini, och-to'qlik tuslarini adashmay tasvirlash katta yordam beradi. Bu holatda rang tovlanishlari, jilvadorligi ikkinchi o'ringa hisoblanadi. Inson qiyofasini o'rganish odatdagidek chizilayotgan narsaning o'ziga xos tomonlarini chuqur tahlil etishdan boshlanadi. Shuning uchun avval qalamchizgilar, bir nechta qisqa-qisqa muddatli ranglavhalar chiziladi. Bitta rangda, ko'pincha jigarrang "mars"ning qora rangi oq bilan tasvirlanadigan tasvirda inson qiyofasining shakl, to'q-ochlik munosabatlari, fonga nisbatan qanday yaxlitlikda ko'rinishi, undagi asosiy rangning tarhi belgilab olinadi. Ana shunday yordamchi ish bajarilgach, asosiy rang boshlab, batafsil tasvirni ishlashga o'tish maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddatli tasvirda esa har bir mayda unsur ham e'tiborga olinib ishlanadi. Tasvirni bajarganda mo'yqalamning yapalog'idan foydalanish har bir bosqich bo'lib-bo'lib, shakliga mos ravishda bo'rttirib aks ettirish imkonini beradi, mo'yqalam shakl yo'nalishi bo'yicha ishlatiladi. Surtmalar har bir bo'lakni bajaradi. Qiyofani tasvirlashda uning atrof-muhitdagi holatiga ham jiddiy e'tibor berish kerak, chunki uning ko'rinishiga atrofda barcha narsalar ma'lum rang va o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tasvirni yuzaga chiqarishda, ayniqsa, orqa fonning o'rni katta, chunki chizilayotgan inson qiyofasi unga nisbatan ko'rinib qolmoqchi bo'lib "siluet"da ko'rinadi. Shu sababli qo'yilmaga ikki xil holatda, ochiq va to'q tusli fon bilan ishlab mashq qilish yaxshi samara beradi. Tasvirlanayotgan inson qiyofasi agar to'g'ridan yoki yon tomondan tasvirlanadi, undagi har bir bo'lak (detal) bo'rtib ko'rinadi va shunda uning yaxlitlikda ishlash qulay bo'ladi. Avval katta shakl tusi (ton) munosabatlari yaxlit

manbasi bilan yoritish yaxshi samara beradi. Shunday qilinganda chizilayotgan obyekt aniq ko'rinib, hajmi ham yaqqol seziladi. Qiyofaning shaklini ko'rsatish uning soya joyidan boshlangani ma'qul, shunda tasvirni yaxlit qilib ko'rsatish oson bo'ladi. Qiyofaning asosiy "siluet"ini topib soya-yorug'i lo'nda qilib olingach, mayda unsurlarga ham o'tish, ularni ma'lum darajada batafsil ishlash mumkin<sup>1</sup>.

Grizayl usulida vazifani ishlab tajriba orttirilgach, rangda ham mashqlar bajarish mumkin. Bu holatda barcha rang tuslaridan unumli foydalaniladi. Rang jilvalarini mukammal o'rganish ishida mashq-vazifani "plener" sharoitida bajarish yaxshi natija beradi. Bunday ishni talaba uy ishi sifatida mustaqil bajarib turishi uning tajribasi ortishiga olib keladi. Inson qiyofasi rangtasvirini ishlash grizayl texnikasi puxta o'zlashtirib olingandan keyingi muhim bosqich. Ma'lumki, tasvir ishlash, xoh u qalamtasvir bo'lsin, xoh rangtasvir bo'lsin, akademik usulda shartli bosqichlarga bo'lib olib boriladi. Bunday bir-biri bilan uzviy bog'liq holda, metodik ketma-ketlikda faoliyat yuritish o'quv-mashq vazifasini muvaffaqiyatli bajarishning omili bo'lib xizmat qiladi.

Qiyofa rangtasvirini ishlash, albatta, bir nechta yordamchi qalamlavhalar ishlab ko'rish, joy tanlash, uning o'ziga xos shakli xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Ulardan unumli foydalangan holda matoga boshning qalamtasviri chiziladi. Qo'yilmaning rangdagi ko'rinishi qanday ekanligini ham bir nechta kichik ranglavhalar ishiab ko'rish orqali tushuniladi. Bunda uning soya-yorug'lik munosabatlari, rang xususiyatlari, yaxlitligi, katta shaklni belgilab tusining fonga nisbati qandayligi aniqlab olinadi va tayyorlab, sinchkovlik bilan mashq qilib ko'rilgan qalam va rangli lavhalar yordamida asosiy vazifani mufassal bajarishga erishiladi.

Bu borada mustaqil ishlar mazmunini quyidagicha belgilash mumkin:

- inson qiyofasi va kiyim qismlarining yorug'lik va soyasining fonga nisbatan yaxlitligining katta shaklini topish;
- shaklni qismma-qism, barcha bo'laklarini o'rganib, batafsil aks ettirib chiqish;
- umumlashtirish va tasvirning tus-rang hamda tuzilish – "konstruktiv" jihatlari yaxlit ko'rinish holatiga olib kelish.

Tasviriy san'atni o'rganishning muhim qismi bo'lgan portret ishiash yo'llarini puxta tahlil etish orqali undagi muhim jihatlarni o'zlashtirish mumkin. Talabalarga portret ishlashning nazariy va amaliy ish yo'sinlari yana bir karra tushuntiriladi. Shundan so'ng talabalar ishni amaliy tarzda boshiydilar. Talabalar boshning barcha muhim hisoblanuvchi qismlarini alohida-alohida

lik umumiy katta shaklga va katta rang umumlashmalariga putur masligi kerak. Boshning har bir kichik unsur rangi hamda shakli ishlar uning katta hajmga va umumiy rang gammasiga nisbati e'tiborda ushlab ni zarur.

Bosh tasvirining mayda qismlarini, ayniqsa, ko'z, qosh, burun, og'iz, quloq ni aks ettirish jarayoni juda nozik va ko'p mehnat talab etadigan ish ularni tasvirlashda talaba nihoyatda hushyor va kuzatuvchan va, eng si, sabr-toqatli bo'lishi muhimdir. Masalan, ba'zi talabalar ko'z, qosh, , og'iz, quloq kabilarni chiziqlar bilan ifodalab ularning o'z shakli, hajmi d ekanligiga chuqur e'tibor bermaydilar. Vaholanki, har bir shaklning o, soya-yorug'ga ega bo'lib, hajmi, rangi o'zgacha ekanligini sezib olish emas. Buning uchun ularning o'zaro farqlarini solishtirib aniqlash va tib aks ettirish mumkin<sup>1</sup>.

Qiyofaning orqa fonga nisbatan uning rangi to'q yoki ochroq tusga ega gini to'g'ri topib tasvirlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Unda ning har bir qismi batafsil ishlanishiga qarab umumiy ko'rinishning yaxlit qilinishiga erishish taqozo etiladi. Shunday hollar ham uchraydiki, talaba anayotgan boshning soya-yorug'liklarini to'g'ri ishiamay juda to'q yoki och qo'yadi. Shu'lalarni ham ortiqcha bo'rttirib, yorqinlashtirib umumiy rang- axlitligiga putur yetkazadi. Vaholanki, aks shu'lalar (reflekslar) soyaning , uning tarkibida bo'lishi kerak. Ularni o'ta bo'rttirib yuborish soya ning maydalashib ketishiga sabab bo'ladi.

Inson qiyofasini umumlashtirish bosqichida barcha maydalab, batafsil etilgan qismlarning "katta shakl"ga bo'ysundirilishiga alohida e'tibor shi talab qilinadi. Umumlashtirilganda, taniqli pedagog-rassom P. yakov ta'biri bilan aytganda, "...ko'zlar va ko'z qorachig'larini astoydil, a yuz bo'laklarini esa erkinroq ishlang, burun va lab bo'laklariga e'tiborni tirmang"<sup>2</sup>. Bu usul belgacha bo'lgan portret tasvirida ham qo'l keladi, ya'ni e'tibor bosh tasviriga qaratiladi.

Portretning to'g'ri topilgan yechimi uning plastik xarakteristikasi, ruhiy i, psixologiyasini shuningdek, uning millatini ham aniq ochib beradi. aning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan di. Portretda, eng muhimi, uning ko'rinishi va yuz ifodasidir. Aynan shu da insonning ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson xarakterini, umuman a borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhim. Boshqa

detallar esa uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun va lablar uning xarakterini ifodalaydi<sup>1</sup>.

Inson qiyofasini ishlaganda uning ko'rinishiga ta'sir etuvchi kompozitsiya markaziga ham ko'p na'rsa bog'liq. Umuman olganda, inson qiyofasini ishlash talabadan katta tajriba talab etadi, ular tinmay mashq qilishlari orqali har bir insonning yuz tuzilishidagi o'ziga xos xarakterni, qarashni, uning ichki kechinmalarini to'laqonli tasvirlashga erishadilar. Eng asosiysi, inson qiyofasini moybo'yoqda tasvirlashda talaba rang va tus munosabatlarini to'g'ri topa olsa, ishni yaxlit bir butunlikda yakunlaydi va ko'zlangan maqsadga erishadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mashqlar faqat auditoriyadagi ishlar bilan cheklanmasligi zarur. Uy ishlarini ham mustaqil, qunt bilan ado etish talabalarning bilimi va tajribasini oshirishning muhim omilidir.

—————●●●●●—————

**Sultanov Xaytboy (TDPU)**

#### TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA KO'RGAZMA VA TANLOVLARNING O'RNI

**Abstract.** *The article discusses the importance of competitions and exhibitions of art of students' works as a way of active professional and psychological preparation of students to pedagogical activity.*

**Резюме.** *В статье рассматривается значение конкурсов и выставок художественного творчества студентов как активный способ профессиональной и психической подготовки студентов к педагогической деятельности.*

**Tayanch tushunchalar:** *ta'limning faol usullari, ko'rgazma, ko'rik-tanlov, kasbiy madaniyat, badiiy ijodkorlik, tajriba, ekspozitsiya, qoralama.*

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari tasviriy san'at yo'nalishidagi o'quv jarayonida talabalar qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiyadan ko'plab o'quv-vazifalar bajarishadi. Ular mashg'ulotlarda rangtasvirda ishlashning eng zarur qonun-qoidalari, ishlash texnikalarini o'zlashtirishadi. Talabalarning mashg'ulotlardagi ilk bajargan o'quv vazifalari, tabiiyki, ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan o'quv vazifasi bo'lib, u ijodiy ishlarga kirmaydi. Rangtasvir mashg'ulotlardagi naturadan bajarilgan (natyurmort, portret) ishlarni tugatish yakunida professor-o'qituvchilar tomonidan ko'rik qilinib, bajarilgan ishlar bal tizimida baholanadi. Odatda, bunday baholaganda talabalarning tasviriy san'atga oid kerakli mahoratlarni egallaganligiga e'tibor qilinadi, lekin har doim